

O'QUVCHILARNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ARUZ NAZARIYASINI O'RGATISH MASALASI

Kamolova Umida Muzaffarovna,

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

umidakamolova555@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarga ularning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda aruz nazariyasini o'rgatishga doir mulohazalar bayon qilingan. Audial, vizual, kinestetik, digital xususiyatli o'quvchilarga aruz ilmiga oid bilimlarni oson va samarali o'rgatish usullari hamda metodik tavsiyalar ifodalangan. Bundan tashqari ta'lim oluvchilarning tafakkur doirasini kengaytiruvchi topshiriqlar, audiomatnlar, ta'limiy ahamiyatga ega chizma va diagrammalar, zamonaviy vositalardan foydalanishning muhim jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: psixologik xususiyatlar, audial, vizual, kinestetik, digital, shaxsiy yondashuv, diagramma, interaktiv mashg'ulot, tafakkur, idrok

Аннотация: В этой статье представлены соображения по преподаванию теории сновидений студентам с учетом их индивидуально-психологических особенностей. Представлены методы и методические рекомендации легкого и эффективного преподавания знаний о сновидении студентам с аудиальными, зрительными, кинестетическими и цифровыми особенностями. Кроме того, освещены задания, аудиотексты, учебно важные рисунки и схемы, а также важные аспекты использования современных инструментов, расширяющих диапазон мышления обучающихся.

Ключевые слова: психологические характеристики, аудиальные, визуальные, кинестетические, цифровые, личностный подход, диаграмма, интерактивное обучение, мышление, восприятие.

Abstract: In this article, considerations on teaching the theory of dreams to students, taking into account their individual psychological characteristics, are presented. Methods and methodical recommendations of easy and effective teaching of the knowledge of dream science to students with audial, visual, kinesthetic, and digital features are presented. In addition, assignments, audio texts, educationally important drawings and diagrams, and the important aspects of using modern tools, which expand the range of thinking of learners, are covered.

Keywords: psychological characteristics, audial, visual, kinesthetic, digital, personal approach, diagram, interactive training, thinking, perception

Aruz nazariyasini o'rganish adabiyot o'qitishning muhim bo'lagi hisoblanadi. O'quvchilarda i lmi aruzga doir bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, amalda qo'llay olish

malakalarini rivojlantirishda ularning individual shaxsiy xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Boisi har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini hisobga olib, dars jarayonini tashkil qilish quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

- birinchidan, materialning o'zlashtirilishini osonlashtiradi;
- ikkinchidan, qiziqish uyg'otadi;
- uchinchidan, shaxsiy yondashuvni kuchaytiradi.

Psixologiya sohasi mutaxassislari voqelikni idrok etish xususiyatlariga ko'ra ta'lim oluvchilarni shartli ravishda 4 toifaga: audial, vizual, kinestetik va digital singari guruhlariga bo'lib o'rganishadi.

Borliqni eshitish orqali anglaydigan, keltirilgan ma'lumotlarni shu yo'sinda eslab qoladigan **audial** o'quvchilarga aruz ilmining nazariy jihatlarini o'rgatishda ovozli materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda ma'ruzalar, audioresurslar, vaznga oid tushunchalarni ovozli shaklda yozib, tinglash, musiqa uyg'unligida dars jarayonini tashkil qilish samaradorlikning muhim omilidir. Shuningdek, mumtoz she'riy asarlarni ovoz chiqarib o'qish ham foydali sanaladi. Yana bir muhim jihati bir mavzuda, ammo ikki vaznda yozilgan she'riy asarning audio ko'rinishini ham o'quvchi hukmiga havola qilish natijali bo'lishi shubhasiz. Masalan, Erkin Vohidovning "O'zbekim", Abdulla Oripovning "O'zbekiston" qasidalarini misol tariqasida aytish mumkin. Yoki Hamid Olimjonning "O'rik gullaganda" va Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatning "Fasli navbahor o'ldi..." g'azali ham yuqoridagi mulohazalarga muhim asos bo'la oladi.



"O'rik gullaganda"



"Fasli navbahor o'ldi..."

Ikkinchi toifa **vizual**, ya'ni ko'rish orqali o'rganadigan o'quvchilar bo'lib, ularga yozuv taxtasida aruzga doir tushunchalarni yozib ko'rsatish kifoya.

Bundan tashqari aruz nazariyasining mazmun-mohiyatini ifodalovchi, bilimlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan diagramma, jadval, grafiklardan foydalanish yoki asosiy tushunchalarini vizual taqdimotlarda (PowerPoint, video animatsiyalar) yordamida o'rgatish ahamiyatlidir.

Umumta'lim maktablarining 8-sinf Adabiyot darsligida Alisher Navoiy ruboiylarini o'rganish ko'rsatilgan. Vizual o'quvchilarga ruboiylarning shakl va mazmun mutanosibligida o'rgatish uchun "Konseptual jadval" qulay metodlardan biri sanaladi.

Ruboiy nomi	Chizmasi	Qaysi	Vazn tarmog'i
-------------	----------	-------	---------------

		bahrda yozilgan?	
“Gardun gah manga jafo-u dunluq qildi...”			
“Ahbob, yigitlikni g‘animat tutunguz...”			
“Ey umri aziz”			

Jadvalni to‘ldirish asnosida quyidagi ko‘rinish hosil bo‘ladi:

Ruboiy nomi	Chizmasi	Qaysi bahrda yozilgan?	Vazn tarmog‘i
“Gardun gah manga jafo-u dunluq qildi...”	- - - V-V- V--- - - - V V--V V--- - - - V V- -V V--- - - - V V-V- V--- -	hazaj bahrida	Axram axrab axrab axrab
“Ahbob, yigitlikni g‘animat tutunguz...”	- - V V--V V--V V - - - V V--V V--V V - - - V V--V V--V V - - - V V--V V--V V -	hazaj bahrida	Axrab axrab axrab axrab
“Ey umri aziz”	- - V V-V- V--V V- - - V V-V- V--V V- - - V V-V- V--- - - - V V-V- V--V V-	hazaj bahrida	Axrab axrab axrab axrab [6, 110]

Shuning bilan bir qatorda, ijtimoiy tarmoqlardagi mavzuga doir videolavhalar, videodarslar ham samaradorlikni ta’minlaydi.



Yana bir individual xususiyat bu – harakat, bajarish orqali o‘rganuvchilar bo‘lib, ular **kinestetiklar** deb yuritiladi. Adabiyot darslarida interaktiv mashg‘ulotlardan foydalanish yordamida ijobiy natijaga erishish mumkin. Bunda aruzga doir she’riy parchalar o‘quvchilar tomonidan yozuv taxtasi yoki qog‘ozda tahlil qilinadi. Vaznga xos xususiyatlari, lingvistik elementlari, chizmasi mustaqil ravishda aniqlanadi.

Na bo‘lg‘ay bir nafas men ham yanog‘ing uzra xol bo‘lsam,

Labing yaprog‘idan tomgan ki go‘yo qatra bol bo‘lsam.

Birinchi ish: baytni hijolarga ajratib, qisqa-cho‘ziqligini belgilaymiz.

Na bo‘l-g‘ay bir na-fas men ham ya-no-g‘ing uz-ra xol bo‘l-sam,

La-bing yap - ro-g'i-dan tom-gan ki go' - yo qat-ra bol bo'l-sam.

V - - - V - - - V - - - V - - -

Ikkinchi ish: baytda hijolar ketma-ketligiga asoslanib, rukn nomi(afoyilu tafoyili)ni aniqlaymiz.

Na bo'l-g'ay bir | na-fas men ham | ya-no-g'ing uz- | ra xol bo'l-sam,

La-bing yap - ro- | g'i-dan tom-gan | ki go' - yo qat- | ra bol bo'l-sam.

V - - - | V - - - | V - - - | V - - -

Foilotun

foilotun

foilotun

foilotun

Uchinchi ish: rukn takroridan bahr nomini aniqlaymiz. Foilotun rukni takroridan ramal bahri hosil bo'ladi.

Vazn tahlilidan ayon bo'lmoqdaki, bayt ramali musammani solimda yozilgan [5, 27].

Vazn ritmini his qilish uchun ohangga mos keladigan qadamlar bilan yurish yoki qarsak urish kabi harakatlarni sinab ko'rish kinestetik o'quvchilarning aruzga doir bilimlarini rivojlantirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

She'rlarni qismlarga ajratib, qayta birlashtirish orqali ham samaradorlikka erishish mumkin.

Yana bir jihati sinfdan va maktabdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, aruz vazniga mos she'rlarni ifodali o'qish orqali ularni his qilish, ya'ni ijro mahorati ham foydali usullardan sanaladi.

Digital, borliqni mantiqiy tasavvur orqali idrok etuvchilarga aruz nazariyasini o'rgatishda vazn nuqtayi nazaridan she'riy parchani birlashtirish, hayotiy misollar orqali qiyoslash, turli fanlar bilan o'zaro bog'liqlikda asoslash samaralidir.

Yax-shi-dir ach | -chiq ha-qi-qat,.....

Ul shi -rin yol- | g'on -ga men-dek.....

- V - - | - V - -

O'quvchilarga mazkur yoki shunga o'xshash misollarning davomini topishga doir topshiriq berish mumkin. Javob tariqasida bir necha variantlar taqdim qilinadi:

A) lek shi-rin yol- | g'on yo-mon

al-da-nib qol- | g'on yo-mon.

- V - - | - V -

B) ya-no-g'ing uz | -ra xol bo'l-sam,

ki go'-yo qat- | ra bol bo'l-sam.

V - - - | V - - -

C) ul chash-mi jal | -lod us-ti-na,

nun el - ti-bon | sod us-ti-na.

- - V - | - - V -

O'z-o'zidan ayonki, ushbu topshiriq o'quvchilarning tafakkur doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Mabodo o'quvchi she'riy parchani yoddan bilsa, davom ettirishi aniq. Agar

taqdim qilingan parcha – misol unga notanish bo‘lsa, noto‘g‘ri javobni mantiqan topishi mumkin. Bunda vazn tahlili muhim rol o‘ynaydi: sinchkov o‘quvchi parchaning davomini “tiklashi” qiyin emas. Boisi uning hijolar ketma-ketligi hamda ruknlar takroriga e‘tibor qilishi yetarli[4, 115]

Yana bir misol:

Suv -da

Olmos -da

Tilla, kumush -da

Gazlama -da

Yer -da

Gaz -da

Elektr -da o‘lchanadi. Bunda nuqtalar o‘rniga mos keluvchi javoblar yoziladi. Ya’ni suv – litrda, olmos – karatda, tilla, kumush – grammada, gazlama – metrda, yer – sotix yoki gektarda, gaz – kubda, elektr – kilovattida o‘lchanadi. She’r esa **vaznda** [4, 114]

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, o‘quvchilar to‘liq holatda audial, visual, kinesteti yoki digital bo‘la olmaydi. Faqatgina ularda shu xususiyat boshqasiga qaraganda ustunroq bo‘ladi. O‘quvchilarning bir vaqtning o‘zida bir nechta uslublarni birlashtirgan holda o‘qitilishi ta’limni yanada samarali qiladi. Masalan, aruz nazariyasini tushuntirganda diagramma, ovozli ma’lumot va amaliy mashqlarni birlashtirish fikrimiz dalilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бобур. Мухтасар. Тошкент.: “Фан”, 1971. 413 б.
2. Фитрат А. Аруз ҳақида. Тошкент, “Ўқитувчи” 1997. Б - 80
3. Ҳоҗиаҳмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1995. Б – 192
4. Kamolova U.M. Innovatsion usullar va zamonaviy ta’limiy vositalar orqali maktabda aruz vaznini o‘rganish masalasi. //Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 11-son. Buxoro, 2024-yil, noyabr. `114-117-betlar
5. Kamolova U.M. Maktabda aruz vaznini o‘rganishga oid qiziqarli mashg‘ulot. // Til va adabiyot ta’limi. 2024-yil 8-son. 26-28-betlar
6. Kamolova U.M. Ruboiylarning vazniy tahlili orqali o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatish masalasi.//O‘zbekiston Milliy universiteti xabarлари. 2024-yil 8-son. 109-111-betlar
7. Навоий А. Мезон ул-авзон // Навоий А. Асарлар. 15 томлик. 14-том. Тошкент.: Ғафур Ғулом номидаги Бадиий адабиёт нашриёти, 1967. Б-133-182
8. Олимов М. Рисолаи аруз. Тошкент.: “Ёзувчи”, 2002. Б-104
9. Olimov S., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. 352 b.
10. Qodirov V. Aruz vaznini o‘qitish tajribasidan// Til va adabiyot ta’limi 2013-yil 1-2-3-4-

son

11. Rahmonova Sh. Umumta'lim maktablarida aruz tizimini o'qitish muammolari. Uslubiy qo'llanma. Toshkent, "Mahalla va Oila" nashriyoti, 2021. B-136